



IJTIMOYIY TARMOQLAR: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O'RNI VA TA'SIRI

Shahobiddinova Ziyoda Farohiddin qizi

*Qo'qon universiteti Andijon filiali, Filalogiya va tillarni o'qitish Ingliz tili yo'nalishi 1-kurs
talabasi*

ziyodashahobiddinova850@gmail.com

Annotatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismiga aylanib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ular insonlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirishi, biznes va ta'lim sohalarida yangi imkoniyatlar yaratishi bilan ahamiyatli. Ayniqsa, onlayn ta'lim platformalari va kasbiy rivojlanish uchun yaratilgan guruhlar orqali ko'plab odamlar yangi bilim va tajribaga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlar tarqalishi, firibgarlik va kiberjinoyatchilik kabi xavf-xatarlar ham ortib bormoqda. Ba'zan foydalanuvchilar o'z shaxsiy ma'lumotlarini e'tiborsiz qoldirib, kiberhujum qurboniga aylanadi. Shuningdek, haddan tashqari ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanish inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, real hayotdagi ijtimoiy aloqalarning susayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy jamiyat ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirishi lozim. Ijtimoiy tarmoqlarni salbiy tomonlari bo'lgani kabi bir qatorda ijobiy tomonlarini ham ko'ra bilishimiz lozim. Negaki bugungi raqamli iqtisodiyot davrida ijtimoiy tarmoq muhim omilga aylanib uygurgani ayni haqiqat. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq orqali insonlar biznes bilan shug'ullanishi, maxsulotini keng tarmoqli reklama qilish, masofaviy ta'lim olish, ta'lim berish va judayam ko'p imkoniyatlardan keng foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, axborot texnologiyalari, XXI asr, Facebook, YouTube, WhatsApp va Instagram, vaqt, sotsial tarmoq, vaqt qadri, ijobiy tomoni, Twitter, platforma, raqamli iqtisodiyot, ta'lim.

Dastlab ijtimoiy tarmoq atamasi (ingilizcha social network) - ijtimoiy obyektlar (odamlar yoki tashkilotlar) guruhi va ular orasidagi aloqalardan iborat ijtimoiy tuzilma ma'nosini anglatgan va zamonaviy internet tarmoqlari paydo bo'lishidan ancha oldin, XX asrning ikkinchi yarmida Manchester maktabi sotsiologi Jeyms Barns tomonidan kiritilgan.

XI asrda ijtimoiy tarmoqlar :

XI asrda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi tufayli axborot jamiyati haqiqatga aylandi:

- ✓ Jamiyat har hil turdagi ma'lumotlarga ega bo'ldi;
- ✓ Ularga real vaqt rejimida imkoniyatga ega bo'ldi.

Axborotdan foydalanish qoidalarini bilish, kerakli manbalarni izlash va tanlashda ma'lum madaniyatga ega bo'lish, axborotdan foydalana olish yoki sifat jihatidan yangi axborotni yaratish muhimdir.

Ijtimoiy tarmoq:

Ijtimoiy tarmoq - bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun shuningdek, ko'ngilochar musiqa, filmlar va ish maqsadlarida foydalaniladigan online platforma. Bunday platforma va ilovalarga misol qilib;

1. Telegram
2. Facebook
3. Twitter
4. Mutola
5. Instagram

va boshqa judayam ko'p platforma va ilovalarga misollar keltirish mumkin. Bunday platformalardan foydalanuvchilar asosan 18-29 yosh egalari.

Hozirgi kunda eng ommabop platformalar haqida:

Facebook - bugungi kunda eng ommabop ijtimoiy media platformalaridan biri bo'lib, oyiga 2,989 milliard faol foydalanuvchilarga ega.

YouTube - ham Facebookdan qolishmagan holda 2,527 milliard faol foydalanuvchilarga ega.

Whatsapp - bu esa 2 milliard faol foydalanuvchilarga ega.

Instagram- platformasi esa bugungi kunga kelib 2 milliard faol foydalanuvchilarga ega.

Tik-tok - platformasi ham 1,9 milliard faol foydalanuvchilarni o'z qamroviga olmoqda.

Bundan kelib chiqqan holda o'rtacha odam televizor tomosha qilishdan ko'ra ko'proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadi. Ayniqsa bu ko'rsatgich yoshi kattalar orasida ham oshib bormoqda. Ammo bu holat davr talabi darajasiga yetib bo'ldi.

Ijtimoiy tarmoqning ijobiy tomonlari:

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tomoni bilan birgalikda ijobiy tomonlari ham talaygina. Masalan ijtimoiy tarmoqning insonlar uchun qulayligi, tezda axborot almashish mumkinligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z qobiliyatlarini namoyon qilish, tajriba va axborot almashish, bo'sh ish o'rinlarini qidirish va taklif qilish, biznes va boshqa sohalarida ham ijtimoiy tarmoq keng ko'lamda foydalanilmoqda va bu insonlar uchun kattagina imkoniyat desak mubolag'a bo'lmaydi. Budan tashqari ijtimoiy tarmoq insonlarning uzog'ini yaqin qilishda yordami katta negaki ijtimoiy tarmoq orqali insonlar o'z mahsulotlarini reklama qilishi, chet elga sotishi, uyda o'tirgan holda chet el bilan aloqaga chiqish va boshqa ko'pgina imkoniyatlar mavjud. Nima bo'lgan taqdirda ham insonlar ijtimoiy tarmoqdan to'g'ri foydalanishi barcha uchun unumli bo'ladi.

Yoshlar orasida so'rovnomada o'tkazilganida 32% insonlar ijtimoiy tarmoq do'stlar orttirish, manfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni maqullagan bo'lsa, yana shuncha insonlar tarmoqlarni yoshlar tarbiyasi va odob axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlashdi. Shunday ekan bugun ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashmasin, uning salbiy oqibatlarini ko'ra bilayotganlar safi ham oshib bormoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq ko'p jabhalarda qo'l kelayotgani rost. Bunga misol elektron kitoblar, elektron kartalar, online darslar, online bozorlarni keltirish mumkin. Ammo bularning qulayligi bilan bir qatorda zararli tomonlari ham yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. To'g'ri elektron kitoblar qulay, ularni har qanday joyda o'qis mumkin va olib yurishda sizga muammo tug'dirmaydi. Lekin keng olib qaraganda kitoblarni qo'l bilan ushlab, his qilib o'qigan afzaldir. Online darslarga kelsak ularni uydan chiqmasdan o'rganish imkonini berishi rost, biroq uy vazifalarni tekshirib oluvchi o'qituvchi bo'lmasligi ko'p talabalarni vazifalari be'tibor qoldirishiga sabab bo'ladi. Online bozor ham o'z qulayliklariga ega albatta, ularni uydan chiqmasdan bemalol biyurtma qilish mumkin, ammo ba'zan buyurtmalar ko'ngildagidek chiqmasligi insonlarni dilini hira qilishi ta'biy hodisa.

Bu raqamli iqtisodiyot ortida qanday sehr bor ekan?

Xususan, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalanish turli muammolarga olib keladi. Masalan, inson havotirlanib, yolg'izlikni kuchliroq his qila boshlaydi. Buning natijasida ishiga , o'qishiga, yaqinlariga e'tiborsiz bo'lib qolishadi. Bunday insonlar uchun ijtimoiy tarmoqlar ularning hayotining mazmuniga aylanib ulgurgan. Shu sababli internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlar soni ortib borayotganligi o'z o'rnida brendlar o'z mahsulotlariga ega bo'ldi. Ajablanarlisi shundaki 54 % odamlar mahsulot reklama qilish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilishadi va 49% xarid qilish bo'yicha qaror qabul qilishadi. Shuningdek, yurtimizda bo'lib o'tgan pandemiya davrida ham ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq ish o'rinlari boshqa ish sohasiga qaraganda ancha chidamli bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ijtimoiy tarmoq biznes yuritishda beminnat yordamchi.

Bugun juda ko'p savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlardan samrali foydalanmoqda. Elektron tijorat, rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Bugun birgina telegram orqali ishbilarmonlik faoliyatini misli ko'rinmas darajada yuksaltirib borayotganlar oz emas. Shu bilan birgalikda Ijtimoiy tarmoq orqali reklamani tanlangan yoki kerakli auditoriyaga yetkazish imkoniyati bor. Buni foydalanuvchilarning qiziqishlarini hisobga olib tarmoqning o'zi algoritmlar asosida bajarishi mumkin.

Yana qo'shimcha qilib aytganda bugungi kunda milliy urf odatlar va milliy liboslarni tiklash maqsadida turli hil challengelar e'lon qilinyabdi , bularni esa turli hil ijtimoiy tarmoqlar orqali butun O'zbekistonga yoyishda keng foydalanilyabdi.

Shaxsiy tarbiya o'z-o'zini rivojlantirish vositasi.

Ijtimoiy tarmoqlarning eng maqtoqli, ahamiyatli jihatlaridan biri - ilm olish, kasb - hunar o'rganishdagi beqiyos yordamchidir. Kundalik turmushda duch kelinadigan turli yumushlarni bajarishni ham internet, xususan ijtimoiy tarmoqlar yordamida osongina o'zlashtirish mumkin. Oddiy misol, ayollar bichish- tikish yoki pazandalik sirlarini Youtube tarmog'idagi kanallardan bemalol o'rganishi mumkin. Zamonaviy matematika, dasturlash, iqtisodiyot asoslari, psixologiya, chet tillari, mobilografiya kabi bugunning eng dolzarb, talab yuqori bo'lgan fan yo'nalishlari bo'yicha ham istalgancha video darsliklar, qo'llanmalar topish mumkin. Virtual auditoriya uchun tashkil etiladigan onlayn darslarda qatnashsa ham bo'ladi.

Axborot topish va almashishdagi yengillik.

Ijtimoiy tarmoqlarda biror mavzudagi axborotni yengillik bilan topish mumkin. Deylik, salomatlik sohasiga qiziqqan kishi ayni shu yo'nalishdagi kanal va guruhlariga a'zo bo'lishi mumkin. Turli sohalarda maslahatlar olishi, kerakli bilim va tasavvurlar hosil qilish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa messenjerlar axborot almashishda juda katta qulayliklar berdi. Turli shakldagi axborotlarni uzatishni keskin osonlashtirib yubordi. Yuborilgan ma'lumotlar messenjerlarning o'zida saqlanishi sababli interneti bor istalgan joyda ulardan foydalanish imkoniyatiga ega. Hatto o'z qurilmangizdan o'chirib boshqa qurilmadan kirish kabi imkoniyatlar mavjud.

Izlash va muloqotdagi qulaylik.

Ijtimoiy tarmoqlarda video, audio, surat, biror - bir shaxsni topish juda ham oson. Bunday saytlarda foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tish chog'i ko'pincha ism sharfi, tug'ilgan yili, yashash manzili, o'qigan, ishlagan joylari va ayni damdagi faoliyati haqida ma'lumotlar kiritadi. Bu ma'lumotlar aloqalari uzilgan sinfdoshlar, kursdoshlar va chet eldagi qarindoshlar va tanishlar bir - birlarini topishiga yordam beradi. Yaqinlar bilan bog'lanish oson va qulay. Juda ko'p ijtimoiy tarmoqlarda va ularning mobil ilovalari orqali yozma, tovushli va tasvirli shaklda muloqot qilish mumkin. Bundan tashqari , aloqa xizmatlari juda arzon. Dunyoning narigi chekkasi bilan ham yoki qpsdni davlatlar bilan bemalol aloqada bo'lish mumkin.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, biz kabi yoshlar ko'p vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o'tirish bilan o'tkazish noto'g'ri va zararli hamdir. Chunki jonli, haqiqiy va real muloqot o'rnini hech narsa to'ldira olmaydi. Nafaqat yoshlar balki kattalar ham kitob o'qishlari o'z ustida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oahirishlari lozim. Tarmoqlardagi faoliyat hech narsani belgilamaydi va har doim ham to'g'ri ma'lumot beravermaydi. Yana shuni aytish mumkinki, Ijtimoiy tarmoqlarning hayotga bo'lgan ta'sirini rad etish qiyin. Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a'zosi bo'la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim. Bundan kelib chiqqan holda tobora kuchayib borayotgani sari insoniyatni zamonaviy texnologiyalarning chinakam qulig aylanishi tabiiy. Har bir inson uchun vaqti o'zi uchun qimmatbaho va qadrlil bo'lishi zarur. Insonlar ijtimoiy tarmoqdagi muvozanatni ushlashi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi - O'zbekiston Respublikasi.
2. Hamidullo o'g'li T.H (2022). Hozirgi kunning dolzarb imkoniyatlari.
3. Ziyouz.com
4. Umidbek Hayitboyevich Adamboyev (2022). Ishonch- e'tiqodni shakllantirishda urf- odat va an'analarning ta'siri. SCIENTIFIC PROCESS (pp 348-351)
5. International Scientific research conference " (20th February, 2022) - Belarus.